

**PUL-KREDIT SIYOSATINING TURIZM XIZMATLARI
SEKTORINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI**

Rizoviddinova Aziza Bekzodbek qizi

Bank-moliya akademiyasi, ikkinchi bosqich magistranti

E-mail: rizoviddinovaaziza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi pul-kredit siyosatining turizm xizmatlari sektorini rivojlantirishga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Pul-kredit siyosati mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, investitsion faollikni oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Ayniqsa, xizmatlar sohasi, jumladan turizm tarmog'ining rivojlanishida monetar siyosat choralari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tezisdagi Markaziy bankning foiz stavkalari, kredit hajmlari, milliy valyuta kursi va pul massasi orqali turizm xizmatlari bozoriga ta'siri iqtisodiy tahlil asosida o'rganilgan. Shuningdek, turizmni moliyalashtirish jarayonida tijorat banklarining roli, kreditlash mexanizmlarining samaradorligi va turizm loyihalarini qo'llab-quvvatlashdagi mavjud imkoniyatlar yoritilgan. Tadqiqotda turizm sektorida investitsion muhitni yaxshilash uchun pul-kredit siyosatini optimallashtirish zarurligi, inflyatsiyani barqaror darajada ushlab turish va foiz siyosatini muvozanatli yuritishning iqtisodiy ahamiyati ta'kidlangan. O'zbekiston misolida turizmni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari bilan Markaziy bank siyosatining o'zaro uyg'unlashuvi tahlil qilinib, ularning milliy iqtisodiyotdagi sinergetik ta'siri asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Pul-kredit siyosati, turizm sektori, xizmatlar sohasi, iqtisodiy o'sish, monetar siyosat, inflyatsiya, foiz stavkalari, milliy valuta, markaziy bank, investitsiyalar, turistik infratuzilma, iqtisodiy barqarorlik, kreditlash, valyuta kursi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilish, milliy ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, xususiyl sektorini rivojlantirish hamda xizmatlar sohasining o'sishini ta'minlash

yo'nalishida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotida yangi o'sish nuqtasi sifatida qaralmoqda. Turizm nafaqat xizmatlar sektorining daromad manbai, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, mintaqaviy infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish vositasi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, turizmning rivojlanishi ko'p jihatdan mamlakatda olib borilayotgan pul-kredit siyosatining samaradorligiga ham bog'liq.

Pul-kredit siyosati har qanday davlatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan foiz stavkalari siyosati, majburiy zaxiralar normasi, kreditlash hajmi, milliy valyuta kursini barqarorlashtirish va inflyatsiyani nazorat qilish kabi chora-tadbirlar umumiy iqtisodiy muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu siyosatning yo'nalishlari turizm sohasidagi investitsion faollik, tadbirkorlik tashabbuslari, bank kreditlari va chet el investitsiyalarining hajmini belgilab beradi. Agar pul-kredit siyosati muvozanatli va prognozli tarzda olib borilsa, u turizm xizmatlari sektorida barqaror moliyaviy muhit yaratadi, bu esa o'z navbatida sohaning jadal rivojlanishiga turtki bo'ladi¹.

O'zbekiston uchun ham ushbu yo'nalish nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda 2017-yildan boshlab iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi boshlandi va xizmatlar sektori, ayniqsa turizm, milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni bilan turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab berildi. Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini iqtisodiyotning real sektoriga, jumladan, xizmatlar tarmoqlariga yo'naltirish mexanizmlari joriy etila boshlandi. Biroq mavjud amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, turizm sohasiga yo'naltirilayotgan moliyaviy oqimlar hali kutilgan darajada emas, bu esa iqtisodiy siyosatning

¹ Гордиевич Т.И., Рузанов П.В. Денежно-кредитная политика: основные режимы и трансмиссионный механизм // Омский научный вестник. Сер. Общество. История. Современность. 2019. Т. 4, № 2. С. 122–130.
www.tadqiqotlar.uz

samaradorligini yanada oshirish zaruratini yuzaga keltiradi².

Shuningdek, turizm xizmatlari sektorining rivojlanishi bevosita moliyaviy resurslarning mavjudligi, ularning qiymati va barqarorligiga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, pul-kredit siyosati iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiyani nazorat qilish va milliy valyutani mustahkamlash orqali turizm uchun qulay investitsion muhit yaratadi. Masalan, foiz stavkalari pasaytirilganda yoki bank resurslari arzonlashganda, turizm korxonalari yangi loyiha va xizmat turlarini joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aksincha, foiz stavkalari yuqori bo'lgan sharoitda tadbirkorlar o'z faoliyatini kengaytirishdan tiyiladilar, bu esa tarmoqning o'sish sur'atlarini sekinlashtiradi.

Pul-kredit siyosati va turizm sektori o'rtasidagi bog'liqlikning yana bir muhim jihati bu – milliy valyuta kursining barqarorligidir. Valyuta kursidagi keskin o'zgarishlar xorijiy sayyohlar uchun xizmat narxlariga, turistik paketlarning jozibadorligiga va ichki turizmni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, milliy valyutaning qadrsizlanishi xorijiy turistlar uchun mamlakatni nisbatan arzon manzilga aylantirsa-da, turistik korxonalar uchun import uskunalar va xizmatlar xarajatlarining oshishiga sabab bo'ladi. Shu bois Markaziy bankning valyuta siyosati turizm sektorining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega³.

Hozirgi kunda dunyo tajribasiga nazar tashlasak, ko'plab mamlakatlar turizmni iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida qo'llab-quvvatlamogda. Xususan, Ispaniya, Turkiya, Tailand va BAA kabi davlatlarda pul-kredit siyosati turizm sohasining ehtiyojlariga mos ravishda olib boriladi. Ular past foizli kreditlar, soliq imtiyozlari, valyuta konvertatsiyasi erkinligi va investitsion kafolatlar orqali turizmni qo'llab-quvvatlamogda. O'zbekiston uchun ham bu tajriba muhim ahamiyat kasb etadi, chunki so'nggi yillarda turizm iqtisodiy diversifikatsiyaning strategik yo'nalishiga aylandi.

Shu bilan birga, pandemiya davrida pul-kredit siyosatining turizmga ta'siri

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni

³ Otajanov U.A., Malikov A.U. Mamlakatimizda pul-kredit siyosatining bosqichlari // Ilm-fan va innovatsiya: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2024. – b. 104–108.

yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Turistik oqimlarning keskin kamayishi, mehmonxona va aviatashuvlar sektorida inqiroz holatlarining yuzaga kelishi sharoitida Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida likvidlikni oshirish, kreditlarni restrukturizatsiya qilish, imtiyozli moliyalashtirish dasturlarini amalga oshirish zarur bo'ldi. Bu holat pul-kredit siyosati nafaqat makroiqtisodiy barqarorlikni, balki tarmoqlararo muvozanatni ham ta'minlovchi muhim mexanizm ekanini yana bir bor ko'rsatdi.

Turizm sohasi iqtisodiyotning xizmatlar sektorida eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, uning o'sishi ko'plab makroiqtisodiy omillarga, jumladan, moliyaviy resurslarning mavjudligi va arzonligiga bog'liq. Agar pul-kredit siyosati iqtisodiyotda arzon kreditlar va past foiz stavkalarini rag'batlantirsa, bu tadbirkorlar uchun yangi turistik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, yangi mehmonxona, transport xizmati, gidlik, rekreatsion hududlarni rivojlantirish uchun tijorat banklaridan olingan imtiyozli kreditlar turizmning infratuzilmasini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, milliy valyuta kursining barqarorligi ham turizm sektorining raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omildir. Valyuta kursining keskin o'zgarishi xorijiy sayyohlar uchun mamlakatdagi xizmatlarning narxini o'zgartiradi, bu esa turistik oqimlarga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, milliy valyuta qadrsizlanganda xorijiy turistlar uchun O'zbekiston nisbatan arzon turistik yo'nalishga aylanadi, biroq turizm biznesida foydalaniladigan import tovarlar narxi oshib ketadi. Shu bois, Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan valyuta siyosati barqarorlikni saqlashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Inflyatsiya darajasi ham turizm sohasida xizmatlar narxiga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. Inflyatsiya yuqori bo'lsa, turistik xizmatlar qimmatlashadi, bu esa ichki turizmni kamaytiradi. Aksincha, inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish xizmatlarning barqaror narxlarda taklif etilishiga yordam beradi.

O'zbekiston tajribasida, so'nggi yillarda Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini yumshatish, kreditlash hajmini oshirish va turizmni moliyaviy

qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, tijorat banklariga imtiyozli kredit resurslari ajratilishi, turizm infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsion loyihalarga davlat kafolatlari berilishi va likvidlikni oshirish siyosati turizm tarmog'ining o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Pul-kredit siyosatining asosiy elementlari va ularning turizm xizmatlari sektoriga ko'rsatadigan iqtisodiy ta'siri quyidagi jadvalda batafsil ko'rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval

Pul-kredit siyosatining turizm xizmatlari sektorini rivojlantirishga ta'siri⁴

№	Pul-kredit siyosati elementi	Ta'sir mexanizmi	Turizm sohasiga ijobiy ta'siri	Salbiy ta'siri
1	<i>Foiz stavkasi siyosati</i>	Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasini belgilash orqali kredit qiymatini tartibga solish	Past foiz stavkalari turizm loyihalarini arzon kreditlar bilan ta'minlaydi; tadbirkorlik faolligi oshadi	Yuqori foiz stavkalari turistik korxonalar uchun kredit xarajatlarini oshiradi
2	<i>Kreditlash hajmini kengaytirish</i>	Tijorat banklariga qo'shimcha likvidlik ajratish orqali kredit resurslarini ko'paytirish	Turizm infratuzilmasi uchun sarmoyaviy loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati kengayadi	Nazoratsiz kreditlash inflyatsiya xavfini kuchaytiradi

⁴ O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tayyorlandi
www.tadqiqotlar.uz

3	<i>Inflyatsiyani nazorat qilish siyosati</i>	Pul massasi va narx barqarorligini saqlash orqali iqtisodiy muvozanatni ta'minlash	Xizmatlar narxining barqarorligi turistlar uchun qulay sharoit yaratadi	Haddan ortiq qat'iy siyosat iqtisodiy faollikni pasaytiradi
4	<i>Valyuta kursini tartibga solish</i>	Milliy valyutaning barqarorligini saqlash orqali eksport-import jarayonlarini muvozanatlashtirish	Barqaror kurs xorijiy turistlar uchun narxlarning prognoz qilinadigan bo'lishini ta'minlaydi	Kursning keskin o'zgarishi turistik tovarlar narxini oshiradi
5	<i>Majburiy zaxiralar siyosati</i>	Tijorat banklarining kreditlash imkoniyatlarini tartibga solish	Zaxira normasi pasaytirilganda turizm loyihalariga ajratiladigan kredit hajmi ortadi	Yuqori zaxira normasi kredit resurslarini kamaytiradi
6	<i>Pul massasi hajmini tartibga solish</i>	Aylanmadagi pul miqdorini oshirish yoki kamaytirish orqali iqtisodiy faollikka ta'sir etish	Yangi turistik loyihalar uchun ichki sarmoyaviy muhit yaxshilanadi	Pul massasi oshsa – inflyatsiya, kamaytirilsa – kredit tanqisligi vujudga keladi
7	<i>Davlat tomonidan subsidiyalar va imtiyozli</i>	Markaziy bank hamkorligida davlat kafolatlari bilan kredit dasturlarini amalga	Turizm subyektlari uchun moliyalashtirish imkoniyatlari	Noto'g'ri tanlangan loyihalar moliyaviy

	<i>kreditlar</i>	oshirish	kengayadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi	xavflarni oshiradi
8	<i>Likvidlikni boshqarish siyosati</i>	Bank tizimi orqali iqtisodiyotdagi pul aylanishini muvozanatlashtirish	To'lov qobiliyatining oshishi turistik xizmatlar hajmini kengaytiradi	Ortiqcha likvidlik inflyatsiyani kuchaytiradi
9	<i>Foizlar bo'yicha soliq imtiyozlari</i>	Kredit resurslari bo'yicha soliq yukini kamaytirish	Tadbirkorlar uchun moliyaviy yuk kamayadi, yangi turistik loyihalarga sarmoya kiritish osonlashadi	Byudjetga tushum kamayishi mumkin
10	<i>Investitsion kreditlar uchun davlat kafolatlari</i>	Yirik turizm loyihalarini sug'urtalash orqali xavfni kamaytirish	Xorijiy investorlarning ishonchi ortadi, turizm sohasiga kapital kirib keladi	Davlat kafolatlari haddan oshsa, byudjet xavfi kuchayadi

Yuqorida keltirilgan jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, pul-kredit siyosati turizm xizmatlari sektorining rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ayniqsa, foiz stavkalari siyosati turizm korxonalarining moliyaviy barqarorligiga eng bevosita ta'sir etuvchi omildir. Qayta moliyalash stavkasining pasaytirilishi bank kreditlarining arzonlashishiga olib keladi, bu esa tadbirkorlik subyektlari uchun yangi turistik loyihalarni amalga oshirishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, past foiz stavkalari investitsiya muhitini yanada jozibador qiladi, bu esa xorijiy sarmoyadorlarni turizm sohasiga jalb etishda muhim omil hisoblanadi.

Kreditlash hajmini kengaytirish siyosati ham turizm uchun katta

imkoniyatlar yaratadi. Tijorat banklari uchun qo'shimcha likvidlik resurslari ajratilishi turizm infratuzilmasini rivojlantirish, yangi mehmonxona va transport xizmatlarini tashkil etish imkonini beradi. Biroq, bu jarayon nazoratdan chiqsa, iqtisodiy tizimda inflyatsiya xavfini oshiradi. Shu bois, Markaziy bank bu yo'nalishda muvozanatni saqlashi lozim.

Valyuta kursining barqarorligi turizm xizmatlarining xalqaro raqobatbardoshligini belgilaydi. Barqaror kurs xorijiy sayyohlar uchun narxlarning prognoz qilinadigan bo'lishini ta'minlaydi, bu esa O'zbekistonni sayyohlar uchun ishonchli manzil sifatida tanitadi. Shu bilan birga, eksport-import muvozanatini ta'minlash orqali turizm tarmog'ining xarajatlari barqaror bo'lishiga erishiladi.

Inflyatsiyani nazorat qilish esa turistik xizmatlarning narx siyosatini barqarorlashtiradi. Xizmatlar narxining keskin o'zgarishi ichki turizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki aholining real daromadlari kamayadi. Shu bois, inflyatsiya barqarorligi turizmning ichki bozordagi talabini mustahkamlaydi. Davlat kafolatlari va imtiyozli kreditlar esa turizmda yirik loyihalarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, mehmonxonalar tarmog'i, dam olish majmualari va yangi turistik yo'nalishlar uchun berilayotgan kafolatlar soha ishonchliligini oshiradi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, pul-kredit siyosati vositalarining izchil va muvozanatli qo'llanishi turizm xizmatlari sektorining jadal rivojlanishini ta'minlaydi. Foiz siyosatini yumshatish, kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish, valyuta kursini barqaror saqlash va inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish orqali mamlakat turizm salohiyatini yanada oshirish mumkin. Shu jihatdan, pul-kredit siyosatining turizm bilan uyg'unlashgan yuritilishi O'zbekistonning iqtisodiy o'sishida muhim strategik yo'nalish sifatida qaraladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida turizm xizmatlari sektori muhim o'rin tutadi va uni qo'llab-quvvatlashda pul-kredit siyosati vositalarining ta'siri beqiyos hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati turizm sohasida investitsion faollikni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, xizmatlar eksportini kengaytirish va valyuta tushumlarini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ayniqsa, foiz stavkalarining maqbullashtirilishi, kreditlash hajmining oshirilishi, inflyatsiyaning barqaror darajada ushlab turilishi va milliy valyuta kursining nisbiy barqarorligi turizm korxonalari faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish uchun turizm tarmog'i ehtiyojlariga moslashgan moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqish zarur. Masalan, turizm infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan imtiyozli kredit liniyalari, turistik startaplarni qo'llab-quvvatlovchi maxsus grantlar va uzoq muddatli investitsion kreditlar mexanizmini joriy etish soha o'sishini jadallashtiradi. Shuningdek, tijorat banklari faoliyatini turizm loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirish, ular uchun davlat kafolatlari va soliq imtiyozlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, pul-kredit siyosati barqarorligini saqlashda valyuta bozori muvozanatini ta'minlash, inflyatsiyani nazorat ostida ushlab turish hamda investitsion muhitni yanada qulaylashtirish zarur. Shu yo'l bilan mamlakatda turizm xizmatlari sifatini oshirish, xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish va iqtisodiyotning xizmatlar sektoridagi ulushni kengaytirish mumkin. Umuman olganda, muvozanatli pul-kredit siyosati O'zbekiston turizm tarmog'ini barqaror rivojlantirishning asosiy moliyaviy tayanchi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli Qarori
3. Гордиевич Т.И., Рузанов П.В. Денежно-кредитная политика: основные режимы и трансмиссионный механизм // Омский научный вестник. Сер. Общество. История. Современность. 2019. Т. 4, № 2. С. 122–130.
4. Кудрин А., Горюнов Е., Трунин П. Стимулирующая денежно-кредитная политика: мифы и реальность // Вопросы экономики. 2017. №5. С. 5-28.
5. Abdullayev S.I. Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining ahamiyati. Science and innovation international scientific journal. Volume 1. Issue 6. UIF-2022.
6. Abdullayev S.I. Davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining ahamiyati. Science and innovation international scientific journal. Volume 1. Issue 6. UIF-2022.
7. Otajanov U.A., Malikov A.U. Mamlakatimizda pul-kredit siyosatining bosqichlari // Ilm-fan va innovatsiya: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2024. – b. 104-108.
8. <https://cbu.uz/> – O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki sayti